

**Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki (OIIB) tomonidan
moliyalashtirilayotgan loyihalar uchun
Ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimi (EIBT)**

“O‘zbektelekom” AK

Strategik modernizatsiya va raqamli infratuzilmani kengaytirish doirasida “O‘zbektelekom” AK tomonidan Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki (OIIB)ning Ekologik va ijtimoiy siyosatiga muvofiq ekologik va ijtimoiy boshqaruvning kompleks tizimi (EIBT) ishlab chiqilgan va joriy etilgan.

Mazkur tashabbus barqaror rivojlanish, raqamli transformatsiya va butun mamlakat bo‘ylab raqamli hamda telekommunikatsiya infratuzilmasini kengaytirishga qaratilgan “O‘zbekiston – 2030” va “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyalarini qo‘llab-quvvatlaydi.

Loyihaning umumiy tavsifi

EIBT O‘zbekistonning 14 ta hududidagi “O‘zbektelekom” AKning mobil va statsionar telekommunikatsiya infratuzilmasini kengaytirish va modernizatsiya qilish bo‘yicha yirik investitsiya loyihasini qo‘llab-quvvatlaydi.

Loyihaning asosiy maqsadlari:

- hududiy markazlarda 5G tarmog‘i qamrovini kengaytirish;
- keng polosali Internetga ulanish imkoniyatini oshirish;
- “IP-telefoniya” qamrovini kengaytirish;

EIBT maqsadlari

EIBT quyidagilarni hisobga olgan holda loyihaviy tadbirlarning amalga oshirilishini ta’minlaydi:

- ekologik va ijtimoiy risklar (xavflar)ni minimallashtirish;
- ijobiy ijtimoiy ta’sirni va inklyuziyani maksimal darajada oshirish;
- milliy qonunchilik, OIIB talablari hamda xalqaro amaliyotga muvofiq ish yuritish;
- barcha manfaatdor tomonlar bilan shaffof hamkorlikni ta’minlash.

Huquqiy va normativ asoslar

Ushbu tizim quyidagilarga asoslangan:

- ekologiya va ijtimoiy sohaga oid milliy qonunchilik hujjatlari;
- AIIBning ekologiya va ijtimoiy mas’uliyatga doir standartlari (ESS 1 va ESS 2);
- barqaror rivojlanish, biologik xilma-xillik, mehnat huquqlari hamda mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha xalqaro kelishuvlar.

EIBTning asosiy komponentlari

- Skrining va toifalash: subloyihalar xavflar toifalari (A, B, C) bo‘yicha baholanadi.
- Ekologik va ijtimoiy ta’sirni baholash (EITB): B toifasidagi loyihalar uchun amalga oshiriladi va Ekologik va ijtimoiy boshqaruv rejasini (EIBR) ishlab chiqiladi.
- Manfaatdor tomonlar bilan muloqot: ayollar va zaif guruhlarining ishtirokini ta’minlash.
- Shikoyatlarni ko‘rib chiqish mexanizmi (GRM): shikoyatlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish uchun shaffof tizim.

- Monitoring va hisobdorlik: ichki va tashqi hisobotlar, shu jumladan AIIBga taqdim etiladigan yarim yillik hisobotlar tayyorlash.

Mehnat, sog'liqni saqlash va xavfsizlik

15,000 dan ortiq xodimga ega bo'lgan "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasi milliy mehnat standartlariga rioya qiladi hamda quyidagilarni o'z ichiga olgan mehnatni muhofaza qilish tizimini joriy etadi:

- xodimlarni o'qitish va sertifikatlash;
- muntazam ravishda auditlar va monitoringni amalga oshirib borish;
- hodisalarga tezkor javob berish protokollari bo'yicha tegishli ishlarni amalga oshirish.

Tashkiliy tuzilma va salohiyat

Ekologik va ijtimoiy masalalar 2024-yilda tashkil etilgan Transformatsiya va strategik rivojlantirish departamenti tomonidan mufofiqlashtirib boriladi. Departamentda butun Kompaniyaga barqaror rivojlanish tamoyillari integratsiya qilinishini ta'minlaydigan shtat xodimlari va shartnoma asosida jalb qilingan mutaxassislar faoliyat yuritadi.

Barqaror rivojlanish sohasidagi majburiyatlar

"O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasi quyidagilar tarafdoridir:

- energiya samaradorligini oshirish va quyosh panellarini joriy etish;
- o'z mulki va ijaraga olingan yerlarni qo'llagan holda majburan ko'chirishning oldini olish;
- inson huquqlarini himoya qilish hamda xilma-xillik va tenglik (DEI) tamoyillarini ilgari surish.

Xulosa

EIBT tizimi "O'zbektelekom" AKning barqaror rivojlanish strategiyasining asosiy tamoyili hisoblanadi, Kompaniyaga sifatli telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim etish imkoniyatini beradi hamda o'z mas'uliyatini his qiluvchi va atrof-muhitga salbiy oqibatlarni minimallashtirishga intiluvchi, O'zbekistonda raqamli transformatsiyani rivojlantirish borasida o'z hissasini qoshib boruvchi yetakchi kompaniya bo'lishiga yordam beradi.